

BUXORO AMIRLIGIDA QOZILIK TIZIMINI ISLOH QILISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR(XIX ASR)

Xaydarov Behruz Olim o‘g‘li
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya

Buxoro amirligi (XIX asr) sud-huquq tizimi Mang‘itlar sulolasi davrida shakllangan va islohotlar orqali takomillashtirilgan. Qozilik tizimi diniy-huquqiy prinsiplarga tayangan holda quyi va markaziy boshqaruv organlarida muhim rol o‘ynagan. Qozilar fuqarolik va jinoiy ishlarni ko‘rib, sud qarorlarining shariatga muvofiqligini ta‘minlagan. Qozikalon oliy sudya sifatida ish yuritgan va fuqarolar quyi instantsiya hukmidan norozi bo‘lsa, qozikalon yoki amirga murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan. Amir Shohmurod davrida oliy sud organi tashkil etilib, qirq a‘lam va muftiylar devoni faoliyat yuritgan. Sud jarayonlarida ayblanuvchi va da‘vogarning shaxsan ishtiroki majburiy bo‘lgan. Islohotlar quyi sud organlarini qayta tashkil qilish, qozilar faoliyatini nazorat qilish va adolatli sudlovni ta‘minlashga xizmat qilgan. Shu tariqa, sud-huquq tizimi adolat, shaffoflik va shariat me‘yorlariga tayangan murakkab va ko‘p bosqichli mexanizm sifatida namoyon bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: Qozilik tizimi, qozikalon, sud islohotlari, Mang‘itlar sulolasi, Amir Shohmurod, shariat, oliy sud, sud jarayoni

Annotation

The judicial system of the Bukhara Emirate in the 19th century was developed during the Manghit dynasty and improved through reforms. The qazi system was based on religious-legal principles and played a key role in both central and local administration. Qazis adjudicated civil and criminal cases, ensuring compliance with Sharia law. The qozikalon acted as the supreme judge and oversaw appeals. During Amir Shohmurod’s reign, a supreme judicial body consisting of forty a‘lam and a council of muftis was established. Court proceedings required the personal presence of both the plaintiff and the defendant. The reforms reorganized lower courts, controlled qazi activities, and ensured fair judicial processes. The system became multi-tiered, Sharia-based, transparent, and equitable.

Keywords: Qazi system, Qozikalon, judicial reforms, Manghit dynasty, Amir Shohmurod, Sharia, supreme court, court procedure

Mang'itlar sulolasi davrida qozilik tizimini isloh qilishga yo'naltirilgan ba'zi harakatlar ham amalga oshirildi¹.

Mangitlar davrida sud-huquq va ma'muriy boshqaruv tizimi shariat qonun-qoidalariga tayangan holda shakllangan bo'lib, unda diniy-huquqiy mansabdorlarning o'rni nihoyatda katta edi. Davlat boshqaruvi markaziy va mahalliy bo'g'inlardan iborat bo'lgani holda, har ikki tizimda ham qozilik idoralari asosiy sudlov organi sifatida faoliyat yuritgan.

Qozikalon butun amirlik bo'yicha oliy sudya hisoblanib, fuqarolik va jinoiy ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni nazorat qilgan. Uning huzurida a'lam va o'n ikki nafar muftiydan iborat devon faoliyat olib borgan. Muftiylar huquqiy masalalar yuzasidan rivoyat va fatvolar tayyorlab, sud qarorlarining shariatga muvofiqligini ta'minlaganlar. Shu tariqa, sud hukmlari diniy-huquqiy asosda mustahkamlangan.

Qozilar mahalliy darajada sud ishlarini ko'rib chiqqan. Ularga nikoh, taloq, meros, mulk, qarz, jinoyat kabi masalalar yuzasidan murojaat qilingan. Sud jarayonlari odatda og'zaki va ochiq tarzda o'tkazilgan. Guvohlik instituti muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib, ikki nafar ishonchli guvohning ko'rsatmasi aybni isbotlash uchun yetarli hisoblangan. Guvohlar diniy talablarga amal qiladigan, halol va obro'li shaxslardan tanlangan.

Jazo tizimi ham shariat me'yorlariga asoslangan. Aybning og'ir-engilligiga qarab jarima, tan jazosi, qamoq, sazoyi qilish yoki o'lim jazosi qo'llanilgan. Bundan tashqari, aybdor yoki uning oila a'zolaridan qo'shimcha moliyaviy tovon undirish amaliyoti ham mavjud bo'lgan. Bu holat amirlik moliyasi va mahalliy amaldorlar manfaatlariga xizmat qilgan.

Qozi chiqargan hukmdan norozi tomonlar qozikalonga, undan ham norozi bo'lsa, amirga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan. SHu bois, sud tizimida muayyan darajada ierarxik apellyatsiya tartibi mavjud edi. Biroq eng so'nggi qaror amir ixtiyorida qolgan.

Sud-nazorat tizimida rais va mirshablar ham muhim o'rin tutgan. Ular jamoat tartibi, bozor nazorati, tarozi-o'lchov to'g'riligi, diniy marosimlarga rioya etilishini kuzatgan. Shu orqali davlat nafaqat huquqiy, balki axloqiy-diniy nazoratni ham amalga oshirgan. Shu tariqa, Mangitlar sulolasi davrida sud-huquq tizimi shariatga asoslangan, ko'p bosqichli va diniy ulamolar ta'siri kuchli bo'lgan murakkab boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Bu tizim jamiyatda tartib-intizomni saqlash, islom qonunlarini mustahkamlash va davlat hokimiyati manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilgan.

¹ Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi. — Toshkent: Tamaddun, 2022.

Amir Shohmurodning sud-huquqiy islohotlari Buxoro amirligida adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan muhim o'zgarishlardan iborat bo'ldi. Ushbu islohotlar orqali sud jarayonlaridagi nohaqlik va qonunbuzarliklarga barham berish, ishlarning shaffof va erkin ko'rib chiqilishiga erishish, shuningdek, qozilarning faoliyatida adolat, insonparvarlik va halollik printsiplarini joriy etish maqsad qilingan edi.

Asosiy sud organi sifatida qozilik mahkamalari saqlanib qoldi, bosh qozi (qozikalon) esa butun mamlakat miqyosidagi oliy sud²ya hisoblanardi. Fuqarolik va jinoiy ishlarning aksariyati qozilar tomonidan hal etilardi. Sud jarayonining tartibi nisbatan sodda bo'lib, da'vogar yoki shikoyatchi qoziga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat qilishi mumkin edi. Ariza yoki shikoyat qabul qilingandan so'ng, ayblanuvchi(lar) qozining huzuriga chaqirtirilar va ish rasman boshlanardi².

Sudda aybni isbotlashda shariat qoidalariga amal qiluvchi, ishonchli va halol guvohlarning ko'rsatmalari asosiy dalil sifatida qabul qilinardi. Guvohlar soni kamida ikki nafardan kam bo'lmasligi shart edi. Qozi jazo tayinlashda aybning og'irligi bilan birga, ayblanuvchining moddiy ahvoli, chin dildan pushaymon bo'lishi, zararni ixtiyoriy ravishda qoplashi, jabrlanuvchidan uzr so'rashi kabi omillarni ham hisobga olardi.

Islohotlarning eng muhim yangiliklaridan biri - qozining hukmidan norozi bo'lgan tomonlarga qozikalonga yoki bevosita amirga shikoyat qilish huquqining berilishi bo'ldi. Shikoyatnoma o'rganilgandan keyin qozikalon qozining qarorini asosli deb topsa, uni bekor qilishi mumkin edi. Qozikalonning o'zi qabul qilgan qarorni esa faqat amir bekor qila olardi. Bu tizim sud hukmlari ustidan samarali nazorat o'rnatishga xizmat qildi.

Amir Shohmurodning tashabbusi bilan oliy sud organi sifatida **qirq a'lam** (qonunshunoslar)dan iborat maxsus palata (qozixona) tashkil etildi. Ushbu palata a'zolari shariatga asoslangan qoidalar va amir tomonidan tasdiqlangan yo'riqnomalarga tayanib, quyi instantsiya qozilarining hukmlariga nisbatan kelib tushgan arz va shikoyatlarni ko'rib chiqardi. Yana bir muhim o'zgarish - oliy palatada ko'riladigan ishlarda da'vogarning shaxsan ishtirok etishi majburiy qilingan edi³.

Umuman olganda, Amir Shohmurod tomonidan amalga oshirilgan sud islohotlari o'sha davr uchun juda ilg'or qadam bo'lib, nafaqat Buxoro amirligida, balki qo'shni xonliklarda ham sud-huquq tizimini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatdi. Bu

² Шодиев Ж.М. Бухоро амирлигида давлатчилик масалалари: Олий ўқув юрти талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Тошкент Давлат юридик институти, 2005. – 74 б.

³ Тошев С.А. Бухоро амирлигида Амир Шохмурод ислохотлари // Academic Research in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 1, № 3. – Б. 1129–1136.

o'zgarishlar quyi sud organlarining qayta tashkil etilishi, qozilarning yangi tartibda tayinlanishi va umumiy sud tizimining mustahkamlanishi bilan ham kuchaytirildi.

Amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan sud-huquqiy islohotlar mamlakatda sud ishlaridagi nohaqliklarga chek qo'yilishiga, sud jarayonlarining erkin va adolatli olib borilishiga hamda qozilar tomonidan odillik, insonparvarlik ruhida sudlovni amalga oshirishga imkon yaratdi. Asosiy sud idoralari sifatida qozilik mahkamalari faoliyat yuritgan bo'lib, qozikalon butun mamlakatning bosh qozisi hisoblangan. Fuqarolik va jinoiy ishlar to'liq ravishda qozilar tomonidan ko'rib chiqilgan. Sud ishlarini yuritish tartibi nisbatan sodda bo'lib, qoziga og'zaki yoki yozma ariza bilan murojaat etish mumkin edi. Murojaatga asosan aybdor shaxslar qozining huzuriga keltirilgan.

Sud jarayonida aybni isbotlashda shariat qonun-qoidalariga amal qilingan. Rostgo'y va halol guvohlarning ko'rsatmasi asosiy dalil hisoblangan bo'lib, guvohlar soni kamida ikki nafar bo'lishi talab etilgan. Shuningdek, jazo tayinlashda aybdorning moddiy ahvoli, qilmishidan pushaymonligi, yetkazilgan zararni qoplashi va jabrlanuvchidan uzr so'rashi kabi holatlar ham inobatga olingan⁴.

Amir Shohmurod islohotlarining muhim jihatlaridan biri - sud ishlarida qonuniylikni mustahkamlash, qozilar faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish hamda mulkiy munosabatlarni huquqiy jihatdan rasmiylashtirishga e'tibor qaratilishi bo'ldi. Jumladan, XIX asr ikkinchi yarmida qozi Mullo Mirzo Hikmatullo tomonidan Amirga Somichan tumanidagi davlat yerlarini aholiga sotish va ularni davlat reestriga kiritish haqida xabarnoma taqdim etilgan. Unda 25 tanob egasiz yer har tanobi bir tildan sotilib, tushgan mablag' davlat xazinasiga topshirilgani qayd etilgan. Bu kabi hujjatlar yer-mulk munosabatlari ham qozilik idoralari orqali rasmiylashtirilganini ko'rsatadi⁵. Bekliklarda ham ma'muriy-huquqiy boshqaruv tizimi shakllangan bo'lib, qozi, rais, muftiy, zakotchi, yasovulboshi va mirshab kabi amaldorlar faoliyat ko'rsatgan. Viloyat qozilari Buxorodan tayinlangan va bekdan mustaqil hisoblangan⁶. Diniy amaldorlar sud hokimiyati bilan birga madrasa, maktab, masjid va boshqa ijtimoiy muassasalarni ham nazorat qilgan.

Buxoro shahar hokimi amirning birinchi vaziri sifatida faoliyat yuritgan. Poytaxt oliy qozisi - qozikalon barcha qozilar rahbari hisoblangan. Qushbegi, qozikalon, bosh rais va mirshabboshi birgalikda "chor hokim" deb atalgan⁷.

Shayxulislom jamiyat ma'naviy hayotida nihoyatda katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, hatto ayrim davrlarda qozikalon ham unga bo'ysungan. Qozi kalon vakolatiga sud

⁴ Сағдуллаев А. ва бошқ. **Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият таракқиёти**. – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 202.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви (ЎЗР МДА). – Ф. И-3, оп. 1, ед. хр. 626, л. 73–86.

⁶ Шодиев Ж.М. **Бухоро амирлигида давлатчилик масалалари**. – Тошкент: ТДЮИ, 2005. – Б. 74.

⁷ Масалиева О. **Бухоро амирлигида давлат бошқаруви** // *Хаёт ва қонун*. – 1991. – № 2.

ishlari, ijtimoiy adolat, bozor nazorati, vaqf ishlari, yetim-bevalar huquqini himoya qilish kabi vazifalar kirgan⁸.

Amir Shohmurod davrida oliy mahkama ta'sis etilib, uning tarkibida qirq nafar faqih faoliyat yuritgan. Sud jarayonida ayblanuvchi va da'vogarning shaxsan ishtirok etishi shart qilib belgilangan. Quyi sud hukmidan norozi tomon qozikalon yoki amirga shikoyat qilish huquqiga ega bo'lgan. Qozikalon hukmini esa faqat amir bekor qila olgan⁹. Amir Shohmurod davrida oliy mahkama tashkil etilib, qirq nafar faqih faoliyat yuritgan, sud jarayonida tomonlarning shaxsan ishtiroki shart bo'lgan va quyi sud hukmidan norozi bo'lganlar qozikalon yoki amirga shikoyat qilish huquqiga ega bo'lgan, faqat amir qozikalon hukmini bekor qilishi mumkin edi.

Shu tariqa yangi sud tizimi - qasaba, tuman, viloyat qozilari, bosh qozi va qirq a'lam sudidan iborat ko'p bosqichli tizim shakllangan. Eng oliy sudya amirning o'zi hisoblangan. Shariat asosida tuzilgan qoidalar to'plami ham sud amaliyotida muhim ahamiyat kasb etgan¹⁰.

Umuman olganda, Amir Shohmurodning sud-huquqiy islohotlari Buxoro amirligida sudlov tizimini takomillashtirish, adolat tamoyillarini mustahkamlash va davlat boshqaruvini markazlashtirishda muhim tarixiy ahamiyat kasb etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zamonov A., Egamberdiyev A. *Buxoro amirligi tarixi*. Toshkent: Tamaddun, 2022.
2. Шодиев Ж.М. *Бухоро амирлигида давлатчилик масалалари: Олий ўқув юрти талабалари учун ўқув қўлланма*. Тошкент: Тошкент Давлат юридик институти, 2005. – 74 б.
3. Тошев С.А. *Бухоро амирлигида Амир Шоҳмурод ислохотлари // Academic Research in Educational Sciences*. – 2020. – Vol. 1, № 3. – Б. 1129–1136.
4. Сагдуллаев А. ва бошқ. *Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти*. Тошкент: Академия, 2000. – Б. 202.
5. *Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви (ЎЗР МДА)*. – Ф. И-3, оп. 1, ед. хр. 626, л. 73–86.
6. Масалиева О. *Бухоро амирлигида давлат бошқаруви // Ҳаёт ва қонун*. – 1991. – № 2.
7. Азамат Зиё. *Ўзбек давлатчилиги тарихи*. Тошкент, 2000.
8. Muhimov Z. *O'zbekiston davlati va huquqi tarixi*. Toshkent: O'qituvchi, 2000. – B. 208.

⁸ Азамат Зиё. *Ўзбек давлатчилиги тарихи*. – Тошкент, 2000.

⁹ Азамат Зиё. *Ўзбек давлатчилиги тарихи*. – Тошкент, 2000.

¹⁰ Muhimov Z. *O'zbekiston davlati va huquqi tarixi*. - Toshkent: O'qituvchi, 2000. – B. 208.